

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

(Магистрантларнинг илмий мақолалар тўплами)

5

Бухоро- 2016 йил

haqiqiy yuqori tabaqaga mansubligini isbotlovchi hujjatlarning o'g'irlanishi, unga yordam bermoqchi bo'lgan va pushaymonlar qilgan qizning o'ldirilishi, qiz qotilining o'limi. Shu voqealardan keyin, xuddi bu baxt haqiqiy emasdek, o'ylab topilgandek Oliverga tuyuladi. Keyinchalik, ulg'ayib, boylikka erishganda ham Oliver o'zining insonparvarlik xususiyatlarini saqlab qoladi.

Dikens Tekereydan farqli o'laroq yaxshilikga ishonuvchi muallif, uning asarlari doim baxtli yakun topadi. Xuddi shunday baxtli yakunni "Great Expectations" asarida ham uchratishimiz mumkin. Asardagi asosiy qahramon Filip Pirip hayoti davomida uchratgan qiyinchiliklarga qarshi kurashadi, ma'lum bir muddatda tushkunlikka tushib qolsada, u, hech qachon yengilmaydi. Asar yakunida o'z sevgan insoni bilan birga bo'ladi va o'z murod – maqsadiga erishadi.

¹My father's family name being Pirrip, and my Christian name Philip, my infant tongue could make of both names nothing longer or more explicit than Pip. So, I called myself Pip, and came to be called Pip.

Misol tariqasida asardan ushbu parchalarni olsak, asar boshida kitobxon voqealar rivojiga zo'r qiziqish bilan intilsada, asarning bosh qahramonlariga rahmi keladi. Chunki Dikensning asarlari markazida odatda sodda, ishonuvchan obrazlarni uchratishimiz mumkin, biroq Tekerey asarlarining bosh qahramoni sifatida o'z maqsadlarini aniq bilgan, o'z manfaatlari uchun hech nimadan toymaydigan obrazlar turadi.

Yuqorida aytib o'tilgan ushbu ikki, o'z zamonasining buyuk yozuvchilari asarlaridagi qahramonlarni o'rganar ekanmiz, o'zimizni go'yoki 19-asrga tushib qolgandek his qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Charles Dickens, Oliver Twist, The Pickwick Papers, 1837
2. William Thackeray, Catherine, Frazer's Magazine, 1839
3. Charles Dickens, Great Expectations, Chapman and Hall, 1961

5 A 120101 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

„SADDI ISKANDARIY“DA TALMEH SAN'ATI

D.I.TOSHEVA (BuxDU magistr talabasi)

Turkiy adabiyotning eng zabardast vakili, g'azal mulkining sultoni, mohir so'z san'atkori Alisher Navoiyning ijodi misoli ummon, unga sho'ng'iganing sari undagi durlarning ko'pligidan hayratlanasan. Buyuk mutafakkirning har bir asari o'zida ilmiy, badiiy va pedagogik g'oyalarni jamlagan bo'lib, har bir bayt chuqur hayotiy mazmunga ega. Ijodkorning badiiy asarlarida ham mohir tilshunos, mutasavvuf olim, tarixchi va munaqqid, jamiyatshunos va adabiyotshunos sifatidagi salohiyati yorqin ko'rinadi. „Turkiy adabiyotning rivoji aynan Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Uning ijodi adabiyot gulzorining eng sara guli bo'ldi“ [3;32]. Navoiy „Xamsa“ si turkiy adabiyotning gultojidir. „Saddi Iskandariy“ xotimasidan o'qiymiz: „Hayrat ul-abror“ni yozarkanman, u el-ulusni hayratlantirib yubordi. „Farhod va Shirin“ tasviriga kirishganimda, teshavorlik bilan bir qancha mashaqqatli tog'larni qazib-qo'porib tashladim. „Layli va Majnun“ dostonini yozganimda, uni o'qigan ko'pgina odamlar majnunlarcha unga shaydo bo'ldilar. Keyin „Sabbayi sayyor“ga ko'nglimni berdim-u, yeti qavat osmondan ofarinlar eshitdim.

¹ Charles Dickens, Great Expectations, Chapman and Hall, 1961, 2-bet

Iskandar haqida otashin so'z yuritarkanman, uni yajuj qarshisida chekilgan „Saddi Iskandariy“ kabi buyuk va o'lmas dedim".[2;812] Ulug' mutafakkir beshlikdagi „Saddi Iskandariy“ dostonida adolat va himmat sohibi Iskandar xususidagi qarashlarni jamlab, voqealarni ana shu qahramon atrofida birlashtiradi.

„Saddi Iskandariy“ 89 bob, 7215 baytdan iborat bo'lib, asar an'anaviy hamd, na't, ustozlarga ta'rif va to'rt eroniy sulola haqidagi badiiy talqin bilan boshlangan. Dostonning asosiy voqealari XV bobdan ibtido topadi. Ulug' adib ijtimoiy-falsafiy, axloqiy- ma'naviy masalalar talqinida Sharq mumtoz she'rshunosligidagi ma'naviy va lafziy san'atlardan mohirona foydalangan. „Saddi Iskandariy“da Navoiy mumtoz adabiyotdagi tashbih, talmeh, intoq, mubolag'a, tanosib, tajnis, iyhom kabi san'atlarga keng murojaat qilgan. Bu o'rinda dostonida istifoyida etilgan bir san'at xususida muxtasar mulohaza yuritmoqchimiz.

„Saddi Iskandariy“da talmeh san'atidan bir necha o'rinlarda foydalanilgan bo'lib, bu san'atning yorqin namunasini deyarli barcha boblarda kuzatish mumkin. D.Quronov va boshqalar tomonidan tuzilgan „Adabiyotshunoslik lug'ati“ da mazkur san'atga quyidagicha izoh beriladi: „Talmeh (ar.-chaqmoq chaqishi, ko'z qirini tashlash, nazar solmoq)-mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, she'rda mashhur tarixiy voqea, shaxslar, badiiy asarlarga ishora qilish...".[1;306]

Dostonning uchunchi bobidan o'qiymiz :

Chu **Musog'a „Tavrot“** etib haq bayon,
Sanga ul bayon ichra mu'jiz ayon.
Bo'lub chunki **Dovud** qismi „**Zabur**“,
Sening mu'jizing anda aylab huzur.
Chu **Isog'a „Injil“** nozil bo'lub,
Haq anda sifotingg'a qoyil bo'lub. [2;23]

Yuqoridagi parchada Muhammad (s.a.v.) gacha yashagan payg'ambarlar va ularga nozil bo'lgan kitoblar haqida so'z boradi. Navoiy bir necha o'rinda Iso siymosiga murojaat qilib, „Iso nafasi“, „Jonbaxsh Iso“ kabi iboralarni ishlatadi. Bu bilan talmeh san'ati vositasida Isoyi Ruhullohga ato etilgan mo'jiza mohiyatiga o'quvchi e'tiborini tortadi.

Asarning bir necha o'rinlarida Iso, Muso nomlari bilan birga Hizr nomi ham keltiriladi. Hizr (a.s.) folklorda ham, badiiy adabiyotda ham keng uchrovchi obraz bo'lib, ushbu dostonida ham Alisher Navoiy bu payg'ambar (ayrim manbalarda avliyo) ga ham badiiy g'oya ifodasida o'rni-o'rni bilan murojaat qilgan.

Gar ul suv berib **Hizr** umrig'a mad,
Bu so'zdin ulusqa hayoti abad. [2;67]

Asarning IX bobi Sulton Husayn ta'rifida bo'lib, Navoiy Husayn Boyqaroni o'z adabiy qahramoni Iskandar misol qat'iyatli, dono va adolatli bo'lishini orzu qiladi va buni talmeh san'ati ko'zgusida quyidagicha aks ettiradi:

Mulozimlarini Skandarfar et,
Adolat uyin „**Saddi Iskandariy**“ et. [2;66]

Dostonda muallif Zahhoh, Faridun, Humoy, Hurmuz, Yalosh kabi afsonaviy qahramonlar, Afrosiyob, Doro singari Eron shohlar nomini keltirish bilan talmeh san'ati vositasida muhim hayotiy-falsafiy g'oyalarni teran talqin qiladi.

Asarning voqealari ifodalangan XXV bobda Chingizxon va Xorazmshohlarning yovlashishi va Xorazmshohning mamnanligi sabab mamlakatning halokatga uchragani tasvirida ham badiiy g'oya ifodasida talmeh san'ati ko'makka kelgan.

Eshittimki, **Chingiz-u Xorazmshoh**,
Adovatqa chun bo'ldilar kiynagoh....
Hamonoki **Chingiz** topib zafar,
Aning mulkini qildi zer-u zabar. [2;137]
Chu **Sa'di-yu, Frdaviy-u, Unsuriy**,
Sano-yu, Xoqoni-yu, Anvoriy
Taaddudda muhtoji tafsul erur,
Vale bo'lsa tafsil, tadvil erur. [2;456]

Yuqoridagi parcha dostonning so'nggi 89 bobidan olingan bo'lib, unda mumtoz adabiyotning eng zabardast siymolari ifodalanadi. Xuddi shu bobni o'qish davomida Hazrat Navoiyning ham ular safidan o'rin olganini anglash mumkin. Mazkur ikki bayt Sharq mumtoz adabiyotidan mukammal xabardor o'quvchiga g'oyat keng ma'lumotlar beradi.

Dostonda muallif Yusuf va Zulayho, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Sulaymon, Luqmon, Rustam, Jabroil(a.s.), Bahrom kabi tarixiy va afsonaviy adabiy qahramonlar nomi bilan aloqador talmehning nodir namunalarini yaratilgan.

„Saddi Iskandariy“ da qo'llangan talmeh san'ati namunalari, asarning badiiy salohiyatini oshirish va uning qiymatini ko'tarish uchun xizmat qilgan. Har bir talmeh zahirida muhim g'oya va fikr ifodalangan bo'lib, kitobxon uni asarni qunt bilan o'qish davomida tushunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov D. va boshqalar Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, „Akademnashr“ , 2010. – 397.
2. A.Navoiy. Saddi Iskandariy. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. -830.
3. Xolliyeva G. Navoiy ijodiga bag'ishlangan ilk dissertatsiya. „O'zbek tili va adabiyoti“ , 2010, 3-son, 32-35.

LIRIK MATNNING ICHKI MUNOSABATLARI

SAIDOVA RAYXONOV (*BuxDU magistr talabasi*)

Hozirgi kunda o'zbek adabiyotida badiiy matnni tahlil qilish va o'rganishning yetakchi metodlaridan biri bu struktural- tahlil metodidir. Bu usul orqali hozirgacha bir qancha nasriy va lirik matnlarning belgi munosabatlari o'rganildi.

Adabiyotshunoslikda strukturalizm XX asrning o'rtalarida Fransiyada fan sifatida shakllandi. Keyinchalik qolgan G'arb mamlakatlariga tarqala boshladi. XX asrning 60 - yillarida Rossiyada professor Y.Lotman rahbarligida struktural markaz tashkil etilgan. Bu fanning asoschilari va rivojlanishi uchun hissa qo'shgan olimlar Klod Levi Stross, Rolan Bart tadqiqotlari va asarlari hozirgi kungacha dasturul-amal bo'lib kelmoqda. Bu fan o'zbek adabiyotiga XXI asrning boshlarida kirib kela boshladi. Strukturalizmning fan sifatida kirib kelishi, bu boradagi izlanishlarning, tadqiqotlarning boshlanishiga asos bo'ldi. Biz o'zbek adabiyotida strukturalizm tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida chop etilgan olimlarning maqolalaridan ham bilamiz. A.Rasulov strukturalizmga ixcham tarzda quyidagicha ta'rif beradi: "Badiiy asar o'ziga xos mikromir: san'atkor asar vositasida olam-olam fikrlarni bildiradi, g'oyalarni ifodalaydi. Biz borliqni qanday o'zlashtirsak, san'atkor matnini shunchalik sinchiklab o'rganamiz. Haqiqiy matn - sistema. Borliq tuzilishida, inson muchasi, a'zolarining joylashishida izchil tarkib, tartib bo'lganidek, badiiy asar matnida ham tartibli tarkib mavjud. Aniqroq aytgach, badiiy asar – betakror struktura,